

ANTI-K DAVR SHAHARLARINING MANBALARDA AKS ETISHI

Qadirova Gulhayo

*Urganch davlat universiteti, Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti,
Arxeologiya yo'nalishi magistranti*

Annotatsiya: Qadimgi Xorazm vohasi antik davr shaharlarining o'rganilishi to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Xorazm, E.E.Nerazik, Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi, B. I. Vaynberg, M. G. Vorobyeva, Yu. A. Rapoport.

Kirish. Qadimgi Xorazm vohasi o'zbek xalqi davlatchiligining ilk bosqichlarini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Bu zaminda ham qadimgi Sharq sivilizatsiyasining an'analari davlatchilikning asosini tashkil etsada, ammo uning tarixiy ildizlari qadimgi Baqtriya va Marg'iyona singari bevosita bronza davriga borib taqalmaydi. Amudaryoning quyi havzalari bronza davrida chorvador dasht kabilalari (Tozabog'yob madaniyati) keng tarqalgan tarixiy hududlardan bo'lib, dasht qabilalariga xos xo'jalik (Quyisoy madaniyati) uzoq vaqt umum aholi madaniyatining asosini tashkil etib keladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Xorazmning arxaik va antik davr shaharlari tarixi va ularning taraqqiyotimasalalari haqida ko'pgina tarixchi olimlar izlanishlar olib borganlar. Ammoyuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, hozirda mavjud arxeologik yodgorliklar, moddiy va ashayoviy, yozma manbalar bizning mavzumizni to'laqonli o'rganishimkonini bermaydi. Tarixiy adabiyotlar va yozma manbalardagi ma'lumotlarning mazmun va mohiyatiga qarab quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: 1. Sobiq Sovet tuzumi davrida chop qilingan tarixiy adabiyotlar (S. P. Tolstov, Ya.G'. G'ulomov, M. A. Itina, A. V. Vinogradov, B. I. Andrianov, Ye. Ye. Nerazik, M. G. Vorobyeva, Yu. A. Rapoport, Yu. P. Manilov, N. N. Vakturskaya, V. N. Yagodin, M. M. Mambetullayev, G'. K. Xodjaniyazov, A.. Sagdullayev). 2. Mustaqillik yillarida voha tarixiga oid tarixiy adabiyotlar, maqola va tezislardagima'lumotlar (V. N. Yagodin, M. M. Mambetullayev, G'. K. Xodjaniyazov, M. Turabekov, A. Sagdullayev, A. Asqarov, X. Matyaqubov, S. Baratov).

Tadqiqotning nazariy va metodologik asoslari sifatida taniqli arxeolog, tilshunos, o'lkashunos, adabiyotshunos, manbashunos, tarixchi olimlarning asarlari hamda ilmiy tadqiqotlari xizmat qiladi. Tanlangan mavzuning mohiyatidan kelib chiqqan holda uni yanada chuqurroq va batafsilroq yoritish uchun bir qator tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. S.P. Tolstov va uning shogirdlari Xorazm vohasining urbanistik jarayonlari bilan bog'liq arxaik va antik davri arxeologik yodgorliklarini

o'rganishga alohida e'tibor berganlar. Masalan, S.P. Tolstov bir maqolasida Xorazm vohasidagi ilk shaharsozlik madaniyatining noyob yodgorligi Ko'zaliqir haqida material bersa, ushbu yodgorlikda tadqiqotlarni davom ettirgan O.A. Vishnevskaya va Yu.A. Rapoportlar shahar haqidagi ma'lumotlarni yanada kengaytirdilar.

Yu.A. Rapoport Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida keltirilgan ma'lumotlar bilan arxeologik materiallarni qiyosiy o'rganish asosida Xorazm xalqining qadimgi diniy-ma'naviy olami haqida maxsus asar yaratdi. Xorazm ekspeditsiyasi o'z faoliyatini to'xtatgach, e'lon qilinmagan materiallar asosida olim keyinroq quyi Amudaryo havzasida ilk davlatchilik va urbanistik jarayonlarga oid qator ishlarni e'lon qildi.

Sariqamishbo'yi deltasi havzalarini o'rganishda X. Yusupovning ishlari salmoqli bo'ldi. Qadimgi yunon mualliflari asarlarida keltirilgan ma'lumotlar I.V. Pyankov va I.N Xlopin tomonidan manbashunoslik nuqtai nazardan o'rganildi. Ularnish ishlarida O'rta Osiyo, jumladan Xorazmning tarixiy geografiasini va etnik tarixiga oid ayrim masalalar tanqidiy jihatdan ko'rib chiqildi. Xorazmning kadimgi va o'rta asrlar tarixini yangi ma'lumotlar bilan boyitishga V.N. Yagodin, M. Mambetullayev, G. Xodjaniyazov, Ye. Bijanov, Yu.P. Manilov, M. Qdirniyozov, M. Turebekov kabi mahalliy arxeologlar ham o'zlarining salmokli hissalarini qo'shdilar.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, antik davr Xorazm shaharlarini o'rganish masalalari nafaqat mintaqaning o'ziga xos tarixini chuqur o'rganishga xizmat qiladi, balki kengroq tarixiy va madaniy kontekstda qadimiy jamiyatlarning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashgayordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, hozirgi zamon tarixshunosligi, arxeologiyasiva ijtimoiy fanlari uchun qimmatli manba bo'lib qoladi. Kelajakda ushbuyo'nalishda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar Xorazmning nafaqat milliy, balki xalqaro tarixiy meros sifatida yanada kengroq o'rganilishi va targ'ib qilinishigaxizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Гуломов Я. Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Т., ФАН, 1959.
- [2] Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab.- Т., 1964, 239-242 betlar.
- [3]Итина М.А. Древности южного Хорезма.- М., Наука, 1991.
- [4]. Толстов С.П. Древний Хорезм. - М.: Издание МГУ, 1948. -352 с.
- [5] Мамбетуллаев М.М. Византийская индикация из Куюк-кала (Северный Хорезм). Нумизматика Центральной Азии. Вып IV. — Т.: «Офсет-Принт», 1999. —с.29-31.